IJTIMOIY SOLIQ MEXANIZMINI REGRESSIV TIZIMGA O‘TKAZISHNING MOLIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGI VA SOLIQ BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Abduraimova Tursunoy Alijon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistratura, 2 kurs talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.22953750

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan proporsional ijtimoiy soliq mexanizmining ish haqi fondini rasmiylashtirish, biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlari ishonchliligi va soliq bazasining barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy soliq tushumlarining 2023-2025-yillardagi dinamikasi inflyatsiya ko‘rsatkichlari bilan taqqoslangan hamda tushumlarning nominal o‘sishini faqat soliq bazasining kengayishi bilan izohlashning cheklangan jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ijtimoiy soliqni proporsional mexanizmdan regressiv mexanizmga o‘tkazishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilib, ish haqi fondi oshib borishi bilan soliq stavkasini bosqichma-bosqich kamaytirishning ish haqini rasmiylashtirishga ta’siri asoslab berilgan. Tadqiqotda Rossiya, Qozog‘iston va Gruziya tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan ijtimoiy to‘lovlarni differensiallashtirish mexanizmlaridan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Natijada regressiv ijtimoiy soliq mexanizmini joriy etish orqali ish haqi fondining rasmiylashtirilishini kengaytirish, moliyaviy hisobotlarda mehnat xarajatlarini haqqoniy aks ettirish, soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy soliq, regressiv soliq mexanizmi, proporsional soliq mexanizmi, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi, soliq bazasi, ish haqi fondi, inflatsiya, yashirin iqtisodiyot, soliq ma’murchiligi, biznes subyektlari.*

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilashda soliq mexanizmlarining samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimining shaffofligi va iqtisodiy rag‘batlantiruvchi xususiyati tadbirkorlik faoliyatining qonuniy yuritilishi, davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishi hamda yashirin iqtisodiyot ulushining kamayishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida soliq stavkalari qayta ko‘rib chiqildi, ayrim soliq turlari optimallashtirildi va soliq ma’murchiligida raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaydi. Bunga birgina misol qilib, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI-ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmonini ham olishimiz mumkin[1]. Mazkur Farmonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish va nazorat qilish tartiblarini takomillashtirish bilan bir qatorda, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi hamda

[1] http://lex.uz//uz/docs/-8442717 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

to‘lanishini ta’minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar belgilangan. Jumladan, 2027–2028-yillarda o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlari uchun tashabbus tarzidagi audit mexanizmini joriy etish hamda auditorlik xulosasini soliq organlari tomonidan tan olish imkoniyati nazarda tutilgan. Bunda aniqlangan xato va kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etish imkoniyatining berilishi tadbirkorlik subyektlarining soliq majburiyatlarini ixtiyoriy va to‘g‘ri bajarishiga rag‘bat yaratadi.

Mazkur yondashuvdan ko‘rinadiki, soliq tizimida faqat soliq stavkalarini belgilash emas, balki tadbirkorlik subyektlarida to‘g‘ri hisob yuritish, soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash hamda moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladigan mexanizmlarni shakllantirish ham muhim hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, amaldagi soliq mexanizmlarini tadbirkorlik subyektlarini rasmiy faoliyat yuritishga ko‘proq rag‘batlantiradigan yo‘nalishda takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ish haqi fondiga bog‘liq soliq yukining korxona xarajatlariga ta’siri va uning ish haqini rasmiylashtirishga bo‘lgan munosabatini hisobga olish zarur. Agar soliq mexanizmi korxonani ish haqi fondini to‘liq rasmiylashtirishga iqtisodiy jihatdan manfaatdor qilsa, bu holat bir vaqtning o‘zida moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va soliq bazasining kengayishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ayniqsa, ish haqi fondi bilan bog‘liq soliq yukining korxonalarning moliyaviy faoliyatiga ta’siri alohida e’tibor talab qiladi. Ish haqi fondining rasmiylashtirilishi korxonaning mehnat xarajatlari, mahsulot tannarxi, xizmatlar qiymati va moliyaviy natijalarida o‘z aksini topadi. Shu sababli ish haqi bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi bilan bir qatorda, tegishli soliqlar bo‘yicha soliq bazasining haqqoniy shakllanishiga ham olib keladi.

2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” mamlakat soliq tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlarini belgilab berdi[2]. Mazkur konsepsiyada mehnatga haq to‘lash fondiga tushadigan soliq yukini kamaytirish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona 12 foizlik stavkasini joriy etish hamda boshqa yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish nazarda tutilgan edi.

Hozirgi amaliyotda ham umumiy tartibda ijtimoiy soliq stavkasi 12 foiz miqdorida saqlanib qolgan. 2026-yil uchun asosiy soliq stavkalari, jumladan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari o‘zgartirilmagan. Ijtimoiy soliq stavkasi umumiy tartibda 12 foiz, budjet tashkilotlari uchun esa 25 foiz etib belgilangan.

Nazariy jihatdan proporsional soliq mexanizmining asosiy afzalligi uning sodda va tushunarli ekanligidadir. Biroq ish haqi fondi oshib boradigan korxonalar uchun ushbu mexanizmning rag‘batlantiruvchi jihatlarini ham baholash lozim. Chunki rasmiy ish haqi miqdori oshgani sari ijtimoiy soliq bo‘yicha xarajat ham shu nisbatda oshib boradi.

Shu holat ish beruvchining ish haqini to‘liq rasmiylashtirish bo‘yicha iqtisodiy manfaatini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, ish haqi fondi katta bo‘lgan korxonalarda qo‘shimcha rasmiy ish haqi

[2] http://lex.uz//docs/-3802378 O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida

bilan birga ijtimoiy soliq xarajatlarining ham ortishi kuzatiladi. Natijada ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ish haqining bir qismini norasmiy shaklda to‘lashga moyillik paydo bo‘lishi mumkin.

Ish haqi fondining to‘liq rasmiylashtirilmasligi moliyaviy hisobotlarda mehnat xarajatlarining real hajmi aks ettirilmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda mahsulot tannarxi, xizmatlar qiymati va davr xarajatlari hamda korxonaning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning haqqoniyligi buziladi. Shu bilan birga, ish haqi bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liq shakllanmasligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq bo‘yicha soliq bazasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli moliyaviy hisobotlar ishonchliligini oshirish masalasini faqat buxgalteriya hisobini takomillashtirish bilan bog‘lash yetarli emas. Ish haqi bilan bog‘liq soliq mexanizmining korxona xarajatlariga ta’sirini ham hisobga olish zarur. Mazkur nuqtayi nazardan ijtimoiy soliqni amaldagi proporsional mexanizmdan regressiv mexanizmga o‘tkazish imkoniyatini ko‘rib chiqish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy soliqni regressiv soliq mexanizmiga o‘tkazishning moliyaviy hisobotlar ishonchliligi, soliq bazasi barqarorligi va yashirin iqtisodiyot ulushiga ta’sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Regressiv soliq mexanizmining mohiyati shundan iboratki, ish haqi fondi oshib borgani sari ijtimoiy soliq stavkasi bosqichma-bosqich kamayadi. Bunda maqsad soliq yukini shunchaki kamaytirish emas, balki ish beruvchini ish haqini to‘liq va rasmiy ravishda aks ettirishga iqtisodiy jihatdan manfaatdor qilishdir.

Regressiv ijtimoiy soliq mexanizmining ishlash tamoyilini quyidagi shartli model orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1-jadval. Regressiv ijtimoiy soliq mexanizmining shartli modeli

Yillik ish haqi fondi darajasi	Ijtimoiy soliq stavkasi	Amaldagi (proporsional)	Farq (+ / –)
Eng kam oylik ish haqining 10 baravarigacha	12%	12%	0%
10 – 30 baravar	10%	12%	–2%
30 – 50 baravar	8%	12%	–4%
50 baravardan yuqori	6%	12%	–6%

Ushbu modelda eng kam ish haqi darajasigacha bo‘lgan segmentda stavka o‘zgarmaydi (12%), bu ijtimoiy himoya maqsadlarini saqlab qoladi. Ish haqi fondi oshgani sari stavka bosqichma-bosqich kamayadi. Bu ish beruvchilarga ish haqini to‘liq rasmiylashtirishning iqtisodiy manfaatini ko‘rsatadi: yuqori ish haqi to‘langan sari soliq yuki proporsional emas, balki pasayuvchi tarzda o‘sadi.

Regressiv ijtimoiy soliq mexanizmi joriy etilganda yuqori ish haqi fondiga ega bo‘lgan korxonalar uchun rasmiy mehnatga haq to‘lash xarajatlari nisbatan kamayadi. Bu ish haqini yashirishga bo‘lgan ehtiyojni keskin pasaytiradi. Natijada ish haqi fondi moliyaviy hisobotlarda real aks ettiriladi, mahsulot tannarxi, xizmatlar qiymati va moliyaviy natijalar obyektiv shakllanadi. Foyda solig‘i bazasining ham haqqoniy aniqlanishiga olib keladi.

Ish haqi fondining rasmiylashtirilishi natijasida bir vaqtning o‘zida uchta soliq bazasi kengayadi: jismoniy shaxslar daromad solig‘i bazasi (12%), ijtimoiy soliq bazasi va foyda solig‘i

bazasi. Soliq stavkasini pasaytirish evaziga soliq bazasini kengaytirish ko‘plab hollarda fiskal samaradorlikni oshiradi. Bu ayniqsa yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo‘lgan sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Norasmiy ish haqi hisob-kitoblari yashirin iqtisodiyotning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Regressiv mexanizm ish haqi yashirilishining iqtisodiy sabablarini bartaraf etadi: ish beruvchi uchun rasmiy ish haqi to‘lash moliyaviy jihatdan qulay bo‘lganda, yashirish ehtiyoji kamayadi. Natijada moliyaviy hisobotlarni ataylab buzib ko‘rsatish hollari qisqaradi.

Xodimlar uchun rasmiy ish haqi pensiya ta’minoti va boshqa kafolatlarning mustahkamlanishini ta’minlaydi. Ish beruvchilar uchun esa audit va soliq tekshiruvlari bilan bog‘liq xatarlarning kamayishi, moliyaviy barqarorlikning oshishi va investitsion jozibadorlikning kuchayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasining proporsional soliq mexanizmini qo’llash davridagi Budjetnoma ma’lumotlarini ham ko‘rib chiqishimiz kerak:

2-jadval. Ijtimoiy soliq tushumlari dinamikasi va inflyatsiya tahlili (2023–2025)

Yil	Ijtimoiy soliq tushumlari (trln so‘m)	Inflatsiya darajasi %
2023	38,6	8,77
2024	46,2	9,8
2025	55,5	7,3

Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq tushumlari 2023-yilda 38,6 trln so‘m, 2024-yilda 46,2 trln so‘m va 2025-yilda 55,5 trln etib prognoz qilingan. Ya’ni, 2023-2025-yillarda nominal tushum qariyb 43,8 foizga oshgan. Biroq mazkur o‘sishni faqat soliq bazasining kengayishi yoki yuqori daromadli qatlamning iqtisodiy faoliyati to‘liq legallashuvi bilan izohlash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki shu davrda narxlar darajasida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan: 2024-yilda yillik inflyatsiya 9,8 foizni tashkil etgan, 2025-yil yakunida esa 7,3 foizgacha pasaygan.

Shu o‘rinda, ijtimoiy soliqni proporsional mexanizmdan regressiv mexanizmga o‘tkazish masalasini xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq soliqlarni shakllantirishda ko‘plab mamlakatlarda yagona stavkadan foydalanish bilan bir qatorda, ish haqi miqdoriga qarab soliq yukini o‘zgartiruvchi mexanizmlar ham qo‘llanib kelinmoqda. Ayniqsa, yuqori miqdordagi ish haqlariga nisbatan ijtimoiy sug‘urta badallarini hisoblashda ma’lum chegaralarning belgilanishi ish beruvchining umumiy mehnat xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ularning tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun quyidagi taqqosiy tahlilni ko‘rib chiqsak:

Mezon	O‘zbekiston	Rossiya	Qozog‘iston	Gruziya
Ijtimoiy soliq mexanizmi	Proporsional (12%)	Regressiv (30%/15,1%)	Proporsional (9,5%)	Proporsional (2%)

Chegara mavjudligi	Yo‘q	Ha (chegara summasi mavjud)	Yo‘q	Yo‘q
Ish haqini rasmiylashtirishga rag‘bat	Past	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori (past stavka)

3-jadval. Ijtimoiy soliq mexanizmlarining xalqaro taqqosiy tahlili

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ko‘rib chiqilgan mamlakatlarda ijtimoiy to‘lovlarni undirish mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soliq stavkasining ish haqi miqdoriga bog‘liqligi va soliq solinadigan bazaga chegara belgilanishi muhim farqlovchi omil hisoblanadi. O‘zbekistonda amaldagi 12 foizlik proporsional stavkada ish haqi miqdori oshishi bilan ijtimoiy soliq summasi ham bir xil nisbatda oshib boradi. Bunda yuqori ish haqi fondiga ega bo‘lgan korxonalar uchun qo‘shimcha rasmiy ish haqi to‘lash qo‘shimcha soliq xarajatlarini ham keltirib chiqaradi.

Rossiya tajribasida esa ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar o‘rtasidagi ushbu bog‘liqlikda differensial yondashuv mavjud. Amaldagi mexanizmda belgilangan bazaviy chegaragacha 30 foizlik stavka qo‘llanadi, ushbu chegaradan yuqori bo‘lgan qismga esa 15,1 foizlik pasaytirilgan stavka tatbiq etiladi. Shu sababli ish haqi miqdori oshgan sari belgilangan chegaradan keyingi qo‘shimcha daromad bo‘yicha ijtimoiy to‘lovning nisbiy yuklamasi kamayadi. Bu jihat maqolada taklif qilinayotgan regressiv mexanizmga mazmunan yaqin bo‘lib, yuqori ish haqi fondiga ega bo‘lgan ish beruvchilar uchun rasmiy mehnat xarajatlarini kamaytiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin.

Rossiya tajribasini O‘zbekiston sharoitida o‘rganishda yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy to‘lov stavkasining pasayishi faqat soliq yukini kamaytirish masalasi sifatida emas, balki ish haqi bo‘yicha rasmiy hisob-kitoblarni kengaytirish vositasi sifatida baholanishi lozim. Agar ish beruvchi xodimga amalda to‘lanayotgan ish haqini rasmiy ravishda ko‘rsatgan taqdirda soliq yukining keskin oshib ketishidan manfaatdor bo‘lmasa, norasmiy to‘lovlardan foydalanish ehtimoli ham kamayishi mumkin.

Biroq ushbu holatni Rossiyada regressiv ijtimoiy soliq joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot to‘liq qisqargan, degan qat’iy xulosa bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Norasmiy bandlik va yashirin ish haqi darajasiga soliq stavkasidan tashqari mehnat bozori, soliq nazorati, ish beruvchilarning xarajatlari, iqtisodiy faollik va boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli Rossiya tajribasi O‘zbekiston uchun tayyor model sifatida emas, balki soliq yukini differensiallashtirishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Qozog‘iston tajribasi ham O‘zbekiston uchun muhim taqqoslash imkonini beradi. Mazkur mamlakatda ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha proporsional yondashuv saqlangan bo‘lsa-da, mehnatga haq to‘lash fondini soliqqa tortish mexanizmi O‘zbekistondagi tizimdan farq qiladi. Shu sababli faqat nominal stavkalarni solishtirish orqali mamlakatlar o‘rtasidagi soliq yukini baholash yetarli emas. Bunda ish beruvchi va xodim zimmasiga tushadigan umumiy yuk, soliq solinadigan baza hamda mavjud chegara va imtiyozlarni birgalikda hisobga olish zarur.

Gruziya tajribasida esa mehnat daromadlariga nisbatan past soliq stavkalarining qo‘llanilishi e’tiborga loyiq. Bunday yondashuv ish beruvchining rasmiy mehnat xarajatlarini kamaytirib, ish haqini rasmiylashtirish uchun qulayroq sharoit yaratishi mumkin. Shu bilan birga, past stavkaning

o‘zi avtomatik ravishda yuqori fiskal natijani kafolatlamaydi. Uning samarasi soliq ma’murchiligi va iqtisodiyotdagi rasmiy faoliyat ulushi bilan chambarchas bog‘liq.

Yuqoridagi mamlakatlar tajribasini O‘zbekiston bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy soliq mexanizmining samaradorligini baholashda faqat soliq stavkasining miqdoriga e’tibor qaratish bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Muhim masala, belgilangan stavka ish beruvchining real xarajatlariga qanday ta’sir qilishi va ushbu xarajatlar ish haqini rasmiylashtirish yoki yashirish bo‘yicha qarorlarga qay darajada ta’sir ko‘rsatishidir.

Bunda xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uning iqtisodiy mohiyatidan foydalanish muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda amaldagi 12 foizlik proporsional ijtimoiy soliq stavkasi ish haqi fondining har qanday oshishiga bir xil soliq yukini yuklaydi. Natijada korxona uchun ish haqini rasmiy ravishda oshirish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajat ham mutanosib ravishda oshib boradi. Ayniqsa, ish haqi fondi katta bo‘lgan korxonalar uchun ushbu yuk sezilarli bo‘lishi mumkin.

Shu sababli ijtimoiy soliq stavkasini ish haqi fondi hajmiga qarab bosqichma-bosqich kamaytirish mexanizmini joriy etish masalasini ko‘rib chiqish mumkin. Bunda asosiy maqsad davlat budjeti daromadlarini kamaytirish emas, balki soliq stavkasining pasayishi hisobiga rasmiy ish haqi fondini kengaytirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Misol uchun, 1-jadvalda ko‘rib chiqqanimizdek, ish haqi fondi ma’lum chegaraga yetganda ijtimoiy soliq stavkasining 12 foizdan 10 foizga, undan yuqori darajada 8 foizga va eng yuqori segmentda 6 foizgacha pasaytirilishi mumkin. Bunday yondashuvda korxona uchun qo‘shimcha xodimni rasmiy ishga qabul qilish yoki mavjud xodimning haqiqiy ish haqini rasmiy ravishda oshirish nisbatan manfaatli bo‘ladi. Natijada dastlab ijtimoiy soliq stavkasining kamayishi hisobiga yuzaga keladigan tushumdagi farq keyinchalik kengaygan soliq bazasi orqali qoplanishi mumkin.

Bu jarayonni faqat ijtimoiy soliq tushumlari bilan cheklab baholash ham to‘g‘ri emas. Ish haqining rasmiylashtirilishi bir vaqtning o‘zida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq va korxonaning moliyaviy natijalari orqali foyda solig‘i bazasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun taklif qilinayotgan mexanizmning samaradorligini baholashda barcha soliqlar bo‘yicha yuzaga keladigan umumiy fiskal natijani hisobga olish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish O‘zbekiston uchun ijtimoiy soliq mexanizmini qayta ko‘rib chiqishda muhim asos bo‘la oladi. Biroq O‘zbekiston mehnat bozori, ish haqi darajasi, yashirin iqtisodiyot ko‘lami va davlatning ijtimoiy majburiyatlari xorijiy mamlakatlardan farq qilishi sababli ushbu mexanizmni milliy sharoitga moslashtirish talab etiladi. Eng muhimi, taklif etilayotgan regressiv mexanizm soliq stavkasini shunchaki kamaytirishga emas, balki rasmiy ish haqi fondini kengaytirish va shu orqali barqaror soliq bazasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘rganishlar natijasida amaldagi 12 foizlik proporsional ijtimoiy soliq tizimi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun bir xil yondashuvni ta’minlashi bilan birga, ish haqi fondi yuqori bo‘lgan korxonalarda qo‘shimcha mehnat xarajatlarining ortishiga sabab bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa ish beruvchining ish haqini to‘liq rasmiy ko‘rsatish bo‘yicha qarorlariga ham ta’sir qilishi mumkin.

2023–2025-yillardagi ijtimoiy soliq tushumlari tahlili tushumlarning nominal jihatdan o‘sib borganini ko‘rsatdi. Biroq ushbu o‘sishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy natija sifatida baholash yetarli emas. Chunki tushumlarning o‘zgarishiga inflyatsiya, ish haqi miqdorining o‘sishi va iqtisodiy faollik kabi omillar ham ta’sir qiladi. Shu sababli ijtimoiy soliq tizimining samaradorligini faqat budjetga tushgan mablag‘ miqdori orqali baholash bir tomonlama xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Xorijiy tajriba tahlili ish haqi miqdori oshgan sari ijtimoiy to‘lov yukini differensiallashtirish mumkinligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bunday mexanizmning natijasi faqat stavkaning pasayishiga bog‘liq emasligi ham ko‘rindi. Rossiya tajribasida kuzatiladigan differensial yondashuvni O‘zbekiston sharoitida qo‘llashda mamlakatdagi ish haqi darajasi, mehnat bozori va soliq ma’murchiligi xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shundan kelib chiqib, maqolada taklif etilgan ijtimoiy soliq stavkasini 12 foizdan 10 foizga, keyingi bosqichlarda 8 foiz va 6 foizgacha pasaytirish modeli amaldagi tartibni takomillashtirishning muqobil varianti sifatida ilgari surildi. Bunda stavkalarning bir xil tartibda, oldindan belgilangan chegaralar asosida kamayib borishi muhim ahamiyatga ega. Chunki soliq tizimining elektronlashib borayotgan sharoitida aniq va sodda mezonlarga asoslangan hisob-kitoblarni axborot tizimlariga kiritish, avtomatik hisoblash va nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa korxona buxgalteri uchun ham, soliq organlari uchun ham hisob-kitob jarayonini ortiqcha murakkablashtirmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan mexanizmning yana bir muhim jihati uning iqtisodiy rag‘bat bilan bog‘liqligidir. Soliq stavkasining yuqori darajadagi ish haqi fondlariga nisbatan bosqichma-bosqich pasaytirilishi ish beruvchi uchun rasmiy mehnat xarajatlarini kamaytiradi. Natijada ish haqining bir qismini yashirishdan ko‘ra, uni rasmiy ravishda hisobga olish iqtisodiy jihatdan maqbulroq holatga kelishi mumkin. Bunda soliq stavkasining pasayishi natijasida yuzaga keladigan dastlabki farq rasmiy faoliyatning kengayishi va soliq solinadigan bazaning ortishi hisobiga qoplanishi ehtimoli mavjud.

Mazkur yondashuvni A. Laffer tomonidan ilgari surilgan soliq tushumlari va soliq stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi Laffer egri chizig‘i nuqtayi nazaridan ham izohlash mumkin. Ushbu nazariyaga ko‘ra, soliq stavkasining oshirilishi har doim ham davlat daromadlarining mutanosib ravishda ortishiga olib kelmaydi. Ma’lum bir nuqtadan keyin yuqori soliq yukining iqtisodiy faollik, rasmiylashtirish va soliq to‘lashga bo‘lgan rag‘batga salbiy ta’siri kuchayishi mumkin. Shu sababli maqolada taklif etilayotgan stavkani 12-10-8-6 foiz ko‘rinishida bosqichma-bosqich kamaytirish Laffer yondashuvidagi optimal soliq yukiga yaqinlashish nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin. Bunda asosiy masala stavkaning pasayishi emas, balki pasaytirilgan stavka hisobiga soliq bazasining qay darajada kengayishidir.

Shu bilan birga, Laffer egri chizig‘i ushbu taklifning avtomatik ravishda tushumlarni oshirishini anglatmaydi. Agar stavka pasayishi kutilgan darajada rasmiylashtirishni oshirmasa, budjet tushumlari kamayishi ham mumkin. Shuning uchun regressiv mexanizmni joriy etishda uning natijalarini amalda kuzatib borish va ijtimoiy soliq tushumlari bilan bir qatorda rasmiy ish haqi fondi, jismoniy shaxslar daromad solig‘i va foyda solig‘i bazasidagi o‘zgarishlarni ham baholab borish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy soliq tizimida ish haqi fondi hajmini hisobga oluvchi differensial yondashuvdan foydalanish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Taklif etilayotgan 12-10-8-6 foizlik modelning sodda va bir xil bosqichlarga asoslanishi uning elektron soliq ma’murchiligi sharoitida qo‘llanishini ham yengillashtiradi. Bunda buxgalter uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish, soliq organlari uchun esa ularni nazorat qilish nisbatan qulaylashadi. Eng muhimi, mazkur mexanizmni soliq stavkasini shunchaki kamaytirish sifatida emas, balki iqtisodiy rag‘bat, rasmiylashtirish va fiskal natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olgan holda baholash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). – 30.12.2019-y., O‘RQ-599-son.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni. – 25.12.2025-y., O‘RQ-1105-son.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). – 13.04.2016-y., O‘RQ-404-son.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – 29.06.2018-y., PF-5468-son.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – 24.02.2020-y., PQ-4611-son.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – 27.08.2026-y., PF-175-son.

1.7. Налоговый кодекс Российской Федерации: часть первая. – 31.07.1998 г., № 146-ФЗ.

1.8. Налоговый кодекс Российской Федерации: часть вторая. – 05.08.2000 г., № 117-ФЗ.

1.9. Қазақстан Республикасының Салық кодексі. – 25.12.2017 ж., № 120-VI ЗРК.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya.

2.2. Hotamov K.R. Biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent.

2.3. Niyazmetov I.M. O‘zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilish va soliq yukini optimallashtirish yo‘nalishlari. – Toshkent.

2.4. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent.

2.5. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish muammolari. – Toshkent.

2.6. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Washington, D.C.: The Heritage Foundation, 2004.

2.7. Alm J., McClellan C. Tax Morale and Tax Compliance from the Firm’s Perspective // Kyklos. – 2012. – Vol. 65, Issue 1. – P. 1–17.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. **3.1.** Jahon banki. O‘zbekiston iqtisodiyotida yashirin sektor ulushini qisqartirish va mehnat bozorini legallashtirish bo‘yicha hisobot. – 2024.

IV. Internet saytlari

4.1. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

4.2. www.imv.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti)

4.3. www.president.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti)

4.4. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti)

4.5. www.worldbank.org (Jahon banki rasmiy veb-sayti)

4.6. www.imf.org (Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) rasmiy veb-sayti)